




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 32 916,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 3,5 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yil narxlariga nisbatan 105,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Qoraqalpog'iston Respublikasining qo'shgan hissasi 3,1 % ga yetdi.

2023- yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022-yil	2023-yil	
I. YAHM, jami	30 117,6	32 916,1	103,5
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 758,8	31 333,7	103,4
mahsulotlarga sof soliqlar	2 358,8	1 582,4	104,0
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	27 758,8	31 333,7	103,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	8 252,5	9 512,7	104,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	8 902,1	9 504,7	102,4
sanoat	6 669,5	6 964,0	101,1
qurilish	2 232,6	2 540,7	106,5
xizmatlar	10 604,2	12 316,3	103,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 399,3	1 753,1	112,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 879,9	2 158,1	107,2
boshqa xizmat tarmoqlari	7 325,0	8 405,1	101,2

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 16 545,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,1 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	92,2	95,2
mahsulotlarga sof soliqlar	7,8	4,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,7	30,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	32,0	30,3
sanoat	24,0	22,2
qurilish	8,0	8,1
xizmatlar	38,3	39,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,0	5,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,8	6,9
boshqa xizmat tarmoqlari	26,5	26,8




2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 95,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,8 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 30,4 % ni, sanoat tarmog‘i 22,2 % ni, qurilish 8,1 % ni va xizmatlar sohasi 39,3 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022-yil



2023-yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2022-yilda – 0,9 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,2 f.p. (2022-yilda – 0,1 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,5 f.p. (2022- yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2022-yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,3 f.p. (2022-yilda –0,3 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023-yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 30,4 %), sanoatda – 101,1 % (22,2 %), qurilishda – 106,5 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 103,8 % ni (39,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 112,8 % (5,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 107,2 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,2 % dan (26,8 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023-yilda YAHM deflyatori indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmat ko'rsatish sohasida – 111,9 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 110,7 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023-yilda kichik tadbirkorlik 18 407,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022-yilda – 15 483,5 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 58,7 % ni (2022-yilda – 55,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan oʻsishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bogʻliq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022-yil

15 483,5

55,8 %

2023-yil

18 407,4

58,7 %

